

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR ORASIDA TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISHDAGI KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLAR  
VA IMKONIYATLAR

*Xalikova Lola Nazarovna*

*Iqtisodiyot fanlar doktori, professor*

*Shodiyorova Sevinch Sherzod qizi*

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti*

*Iqtisodiyot fakulteti Xalqaro Iqtisodiyot va Iqtisodiy*

*Munosabatlari yo`nalishining 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning makroiqtisodiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Maqolada inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar, imtiyozli kreditlash mexanizmlari tahlil qilib boriladi. Shu bilan birgalikda, yoshlar bandligini ta‘minlashda kichik biznesning multiplikator effekti va innovatsion startaplarning roli yoritib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Inson kapitali, imtiyozli kredit, multiplikator effekti, startap loyihalar, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya, bandlik.

**Аннотация:** В этой статье речь идет о макроэкономическом значении развития молодежного предпринимательства в условиях модернизации экономики Узбекистана. В статье анализируются инвестиции, направленные на человеческий капитал, механизмы льготного кредитования. Наряду с этим освещается мультипликативный эффект малого бизнеса и роль инновационных стартапов в обеспечении занятости молодежи.

**Ключевые слова:** Человеческий капитал, льготный кредит, эффект мультипликатора, стартап-проекты, макроэкономическая стабильность, инвестиции, занятость.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining noyob demografik transformatsiya davrini boshidan kechirmoqda, xususan mamlakat aholisining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etishi milliy iqtisodiyot uchun ham mislsiz imkoniyat, ham ulkan ijtimoiy-iqtisodiy ma‘suliyatdir. Iqtisodiyot nazariyasida ushbu qatlam “eng dinamik inson kapitali” sifatida qaralib, u uzoq muddatli barqaror o‘shishning asosiy drayveri hisoblanadi.

Biroq, davlat sektorining cheklangan ish o‘rinlari yaratish quvvati hamda mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan katta hajmdagi yangi ishchi kuchi sharoitida, an‘anaviy bandlik modellari o‘z samarasini yo‘qotmoqda. Shu sababli, yoshlar orasida tadbirkorlik tashabbuslarini tizimli qo‘llab-quvvatlash va

innovatsion ekotizimni shakllantirish — ishsizlik darajasini pasaytirish hamda Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibini yuqori texnologik xizmatlar hisobiga boyitishning eng samarali strategik yoʻlidir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolaning maqsadi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlar sharoitida yoshlar tadbirkorligining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, yosh tadbirkorlar uchun yaratilgan bir qator moliyaviy -investitsion muhitni oʻrganish va mamlakat iqtisodiy oʻsishdagi strategik oʻrnini baholashdan iborat.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Yuqorida taʼkidlanganidek, mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan katta hajmdagi yangi ishchi kuchi sharoitida yoshlar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlardan biri bu Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasi boʻlib, u tadbirkorlik tashabbuslarini tizimli amalga oshirishda asosiy moliyaviy drayver vazifasini bajarmoqda.

**Mazkur yoʻnalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida**, davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga koʻra, 2025–2027-yillarda “Yoshlar biznesi” dasturini amalga oshirish belgilangan boʻlib, unda quyidagi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan:

- dastur doirasida 350 mingta yoshni qamrab olinadi, shu jumladan, 18 yoshga toʻlgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar uchun kamida 100mingta qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratiladi;

- yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar koʻrsatiladi, ularning faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash borasida AT “Aloqabank” tayanch “yoshlar banki” etib belgilanadi;

- zamonaviy tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish uchun yoshlarning

Startup va investitsiya loyihalariga imtiyozli moliyaviy mablagʻlar ajratiladi;

- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan innovatsion loyihalar hamda ijtimoiy tadbirkorlik yoʻnalishidagi qoʻllab-quvvatlash choralari joriy etiladi.

- “Biznesga birinchi qadam” loyihasigamuvofiq 18 yoshga toʻlgan va 30 yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq toʻlagan oʻzini oʻzi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda imtiyozli davr bilan 7-yilgacha muddatga 100 mln soʻmgacha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratiladi.

- “Yoshlar uchun ish oʻrinlari” loyihasi asosida YATT sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, taʼsischilari yosh fuqarolar boʻlgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlarning kamida 20 ta ish

oʻrni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga imtiyozli davr bilan 7-yilgacha muddatga 5mlrd soʻmgacha mablagʻlar ajratiladi.

Yuqoridagi dastur va institutsional mexanizmlarning amaliy natijalari sifatida mamlakatda kichik tadbirkorlik subyektlari sonining barqaror oʻsishi kuzatilmoqda. Xususan, 2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtani, shundan, kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda) soni 493,0 mingtani, YATTlar soni 284,4 mingtani, dehqon xoʻjaliklari soni 395,6 mingtani, oilaviy tadbirkorlar 5,6 mingtani, hunarmandlar 22,1 mingtani va import tovarlari sotuvchilar 0,9 mingtani tashkil etdi.

**1-jadvalda. Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni  
2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik**

	Jami	Shundan:	
		Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklari qoʻshgan holda)	YATT, dehqon xoʻjaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar
<b>Oʻzbekiston Respublikasi</b>	<b>1 201 612</b>	<b>492 993</b>	<b>708 619</b>
Qoraqalpogʻiston Res.	56 942	24 466	32 476
Andijon	122 726	29 331	93 395
Buxoro	73 853	30 236	43 617
Jizzax	94 610	22 491	72 119
Qashqadaryo	68 367	37 899	30 468
Navoiy	40 970	21 018	19 952
Namangan	78 263	28 510	49 753
Samarqand	103 852	45 452	58 400
Surxondaryo	107 298	26 910	80 388
Sirdaryo	107 298	13 878	21 309
Toshkent	35 187	46 647	45 149
Fargʻona	93 394	41 870	51 524
Xorazm	91 884	27 746	64 138
Toshkent sh.	142 470	96 539	45 931

**Manba:** Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. *Adliya vazirligi maʼlumotlar bazasi asosida shakllantirilgan*

**2-jadval. Faoliyat yuritayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni 2026-yil 1-yanvar holatiga, birlikda**

	Jami	Shundan:				
		Yakka tartibdagi tadbirkorlik	Dehqon xo'jaliklari	Oilaviy tadbirkorlar	Hunarmandlar	Import tovarlari sotuvchilar
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>708 619</b>	<b>284 440</b>	<b>395 559</b>	<b>5 575</b>	<b>22 117</b>	<b>928</b>
Qoraqalpog'iston Res.	32 476	17 090	13 915	517	951	3
Andijon	93 395	26 233	64 909	140	2 088	25
Buxoro	43 617	17 401	24 383	336	1 474	23
Jizzax	72 119	27 186	42 205	138	2 564	26
Qashqadaryo	30 468	9 767	19 583	74	1 033	11
Navoiy	19 952	7 650	11 805	44	447	6
Namangan	49 753	19 908	27 379	50	1 990	426
Samarqand	58 400	23 327	33 301	271	1 496	5
Surxondaryo	80 388	29 792	47 930	551	2 090	25
Sirdaryo	21 309	8 025	12 775	40	465	4
Toshkent	45 149	16 710	27 465	120	845	9
Farg'ona	51 524	26 060	22 508	1 115	1 791	50
Xorazm	64 138	14 198	47 370	582	1 977	11
Toshkent sh.	45 931	41 093	31	1 597	2 906	304

2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 31,7 birlikni tashkil qildi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining (har ming aholiga nisbatan) eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax viloyatida 61,0 birlik, Toshkent shahrida 45,3 birlik, Xorazm viloyatida 44,8 birlik va Sirdaryo viloyatida 37,5 birlikni tashkil etdi.

Mazkur ko'rsatkichlar yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yoshlar biznesi" dasturi nafaqat yangi biznes subyektlarini tashkil etishga, balki mavjud kichik biznesni kengaytirish va ularning bandlik yaratish salohiyatini oshirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi. Natijada, kichik biznes iqtisodiyotda bandlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, uning multiplikator effekti orqali boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki bermoqda.

**Xulosa va takliflar**

Ushbu maqola asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Adliya vazirligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirilgan*

Aholining katta qismini yoshlar tashkil etishi ularni ish bilan ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu sababli davlat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, xususan "Yoshlar biznesi" dasturi yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va rivojlantirishi uchun muhim imkoniyat yaratmoqda. Imtiyozli kreditlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va startap loyihalarga berilayotgan e'tibor natijasida kichik biznes subyektlari soni ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratilishiga va yoshlar bandligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi boshqa sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiyotda multiplikator effektini yuzaga keltirmoqda.

- yoshlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun ayniqsa kam rivojlangan va chekka hududlarda qo'shimcha imkoniyatlar yaratish kerak;

- yoshlar uchun tadbirkorlikka oid amaliy o'quv kurslari va treninglarni ko'paytirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.02.2025 yildagi PQ-62-son <https://lex.uz>
- 2 **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.** O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik subyektlarini kuzatuv boshqarmasi (2026-yil bo'yicha tahliliy hisobotlar). [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
- 3 **O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi axborot xizmati.** "Yoshlar tadbirkorligi rivojlantiriladi" maqolasi, 2025-yil 25-fevral. Yoshlar tadbirkorligi rivojlantiriladi (<https://gov.uz/yoshlar/news/view/37820>)
- 4 **Vahobov A.V. va boshqalar.** Makroiqtisodiyot. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.